



## ALOHIDA TA'LIM EHTIYOJLARI BO'LGAN BOLALARNING OG'ZAKI NUTQINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

*Nabiyeva Xilola Abdilmuratovna,*

*O'zDJTU katta o'qituvchisi*

*977292022*

Nutq bu og'zaki muloqotning asosiy omili hisoblanadi. Nutq shakllanishi bevosita til harakati va eshitish qobiliyati bilan bog'liq bo'lib, bolalarda atrofdagilarga taqlid etish, eshitish faoliyati orqali tovushlarni idrok etish orqali rivojlanadi. Bu jarayonda bola nafaqat eshitganlariga taqlid qilgan holda talaffuz qilish, balki o'z nutqi va atrofdagilarning nutqidagi farqlarni anglay olish, so'zlarning leksik va grammatik tarkibini tushungan holda ifoda etish kabi imkoniyatlarga ega bo'ladi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan kar va zaif eshituvchi bolalarda nutq o'ziga xos tarzda rivojlanadi. Bunda nutqning rivojlanishi eshitish bilan bog'liq muammolarning tug'ma yoki orttirilganligiga, orttirilgan bo'lsa, uning qaysi yoshda paydo bo'lganligi, ya'ni nutq rivojlangan yoki rivojlanmagan davrga to'g'ri kelishiga qarab turli ko'rinishlarga ega bo'ladi. Shu bilan birga, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning kasallik kelib chiqish sabablari ham turli bo'lishi mumkin. Bunga misol qilib homiladorlikda bolaning erta rivojlanishidagi nuqsonlar, irsiyat, bolaning kichik yoshda eshitishga asorat beruvchi turli kasalliklar bilan kasallanishi (qizamiq, qizilcha, otit, parotit, gripp) eshitishning pasayishiga, hattoki, karlikka sabab bo'lishi mumkin. Bundan tashqari hozirgi kundagi ekologik o'zgarishlar



ta'sirida ham bolaning eshitish analizatorida turli o'zgarishlar natijasida yuzaga kelishi kuzatilmoqda.<sup>1</sup>

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlash o'ziga xos murakkablik va qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Bunda boladagi kamchilikdan kelib chiqqan holda, maktabgacha bo'lgan davrdan boshlab, bolani tarbiyalash va ta'lim olish jarayonlari o'ziga xos dastur asosida ishlab chiqiladi. Bunda bolaning eshitishining pasayish darajasini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan eshitish darajasining pasayishi quyidagi tasnifi berilgan:<sup>2</sup>

**Eshitish pasayishi darajalarining xalqaro standartga ko'ra tasnifi:**

Eshitish pasayishi (dB)	Eshitishdagi nuqson darajasi
26–40 dB	I darajali eshitish pasayishi
41–55 dB	II darajali eshitish pasayishi
56–70 dB	III darajali eshitish pasayishi
71–90 dB	IV darajali eshitish pasayishi
91 dB va undan yuqori	To'liq karlik

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni o'rganish, ularning rivojlanish xususiyatlarini aniqlash hamda samarali ta'lim yo'nalishlarini belgilash dolzarb ilmiy-amaliy muammolardandir. Eshitishning buzilishi bolaning nutqi, tafakkuri, ijtimoiy moslashuvi va shaxs sifatida shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan gapirishga o'rgatish uni tovushlarni talaffuz qilishga o'rgatishgina emas, garchi bu kar bola tarbiyasida o'ziga xos sanaladi va alohida malakalarni talab qiladi, biroq asosiysi nutq mazmunini tushunishga o'rgatish va muloqotda og'zaki nutqdan foydalanishga, so'zlovchini lab harakatlari orqali

<sup>1</sup> Olimova N.A. Shaxobiddinova N.M. "Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning o'ziga xos xususiyatlari". "Maktabgacha ta'lim taraqqiyoti, muammo yechim va istiqbol" Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Andijon. 9-10 aprel 2025-yil

<sup>2</sup> Djurayeva S.B. "Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar: toifalari va tasniflash mezonlari". Maktabgacha va maktab ta'limi, 2025-yil, dekabr, 12-son.



tushunishga o'rgatish kar va zaif eshituvchi bolalar bilan ishlashning asosiy jihati hisoblanadi. Bunda mutaxassis eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning kommunikativ va eshitish imkoniyatlarini aniq tasavvur etishi muhim ahamiyatga ega. Xususan, zaif eshituvchi va kar bolaning nutq orqali mustaqil muloqot qila oladigan masofasini bilishi hamda ularni eng maqbul ta'lim yo'nalishlariga yo'naltirishi zarur.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar maxsus sharoitda, maxsus usullar bilan o'qitilishi va tarbiyalanishi kerak. Eshitish nuqsonlarining yengil darajalari ham bolaning har tomonlama rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi, bog'cha va maktab dasturlarini o'zlashtirishda bir qator o'ziga xos qiyinchiliklar kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Kichik yoshdagi bolalarning eshitish qobiliyati nutqi rivojlangandan so'ng, masalan, ikki yoshida yo'qolganida ham karlik natijasida bola atrofdagilar nutqini eshitmaydi va hattoki, bilganlarini ham asta-sekin unutadi. Bolaga o'z vaqtida maxsus yordam ko'rsatilmasa, unda aqliy zaiflik belgilari ham paydo bo'ladi. Biroq nuqsonning o'rnini to'ldirib, boshqaruvchi jarayonlarni faollashtiruvchi maxsus, korreksion sharoit boladagi nuqsonlarni bartaraf etib, ularning ham nutqiy rivojlanishini, ham umumiy, aqliy rivojlanishini ta'minlaydi. Zaif eshituvchi bolalar uchun maxsus tashkil etilgan maktabgacha tarbiya muassasasi hamda maktab-internatda barcha zarur shart-sharoitlar mavjud. Maxsus muassasalardagi tarbiyachi va o'qituvchilar bunday bolalarning tegishli ta'lim tarbiya olishlariga yordam berishlari kerak. Yuqorida qayd etilganidek, surdopedagogikada eshitish qobiliyati zaif bolalarga kar-soqov, tug'ma hamda keyinchalik zaif eshituvchi bo'lib qolgan bolalar kiradi. Zaif eshituvchi bolalar o'z navbatida eshitish qobiliyatining qay darajada buzilganiga qarab yengil, o'rta va og'ir darajali kamchiligi bor bolalarga bo'linadi. Yengil darajadagi zaif eshituvchi bolalar ovoz bilan gapirilgan nutqni 6–8 m masofadan ovoz chiqarmay, shivirlab gapirilgan gapni quloq suprasidan 3–6 m masofada eshitadi. O'rta darajadagi zaif eshituvchi bolalar ovoz chiqarib gapirilgan gapni 4–6 m, ovozsiz pichirlab gapirilganini 1–3 m masofadan eshitadi. Og'ir



darajali zaif eshitishda bola o'rta me'yorda ovoz bilan gapirilgan gapni quloq suprasidan 2 m, shivirlashni 0,5 m masofadan eshitadi, xolos. Zaif eshitishi natijasida bola nutqida bir qator kamchiliklar kuzatiladi: lug'atining kambag'al bo'lishi, grammatik komponent rivojlanmagan – gap ichida so'zlarni tashlab ketish, so'zlarni noto'g'ri ishlatish, ularni o'zaro bog'lay olmaslik, kelishik, so'z yasovchi, so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalarni ishlata olmaslik; tovushlarni noto'g'ri talaffuz qilish – o'xshash, jarangli-jarangsiz undoshlarni bir-biri bilan adashtirish, tushirib ketish va boshqalar shular jumlasidandir.

Kar va zaif eshituvchi bolalar uchun og'zaki nutqni o'rgatish, birinchi navbatda, uni boshqalar bilan kundalik aloqa vositasi bilan qurollanishini hamda ijtimoiylashuvini anglatadi. Shu bilan birga, og'zaki nutqning yaxshi, mustahkam assimilyatsiyasi karlarga fikrlash jarayonida unga tayanishga imkon beradi. Kar va zaif eshituvchi bolalarni eshitish vositasi bilan tanishtirish, u uchun fikrlash vositasiga aylanishi, og'zaki nutq uning shaxsiyatining shakllanishiga chuqur ijobiy ta'sir ko'rsatadi va unga jamiyatning to'laqonli a'zosi bo'lishga yordam beradi. Jamiyat hayotida o'z o'rniga ega bo'lib, shaxs sifatida shakllanishiga samarali ta'sir ko'rsatadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Djurayeva S.B. “Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar: toifalari va tasniflash mezonlari”. Maktabgacha va maktab ta'limi, 2025-yil, dekabr, 12-son.
2. Fayziyeva U., Nazarova D., Qodirova F. «Surdopedagogika» Malaka oshirish institutlari va pedagogika institutlari – Toshkent: «Sano-standart» 2012.
3. Olimova N.A. Shaxobiddinova N.M. “Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning o'ziga xos xususiyatlari”. “Maktabgacha ta'lim taraqqiyoti, muammo yechim va istiqbol”. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Andijon. 9-10 aprel 2025-yil.